XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 3-iyun VI-92-56-10-0-K/24 Toshkent viloyati

“Yangi Angren IES” aksionerlik jamiyati tomonidan aholi va ulgurji iste’molchilarga ichimlik suvi xizmatlariga ko‘rsatiladigan tarif narxlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6074-son Farmoni 3-bandiga muvofiq hamda Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 19-fevraldagi 01-20/27-06-38/175-son xati inobatga olgan holda ichimlik suvi tariflarini tartibga solish maqsadida, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6074-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024 yil 19 fevraldagi 01-20/27-06-38/175-son xati ma’lumot uchun qabul qilinsin;

2.1. “Yangi Angren IES” aksionerlik jamiyati tomonidan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi tariflari taqdim etilgan xulosa asosida ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi (Z.Eraliyeva), “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalari (G.Sheraliyev) iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlarining yangilangan tariflari 2024-yil 10-iyundan boshlab qo‘llanishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borishi tavsiya etilsin.

4. “Yangi Angren IES” aksionerlik jamiyati, Ohangaron tuman hokimligi tomonidan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvining yangilangan tariflari 2024-yil 10-iyundan boshlab qo‘llanishi yuzasidan xar bir mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

5. “Yangi Angren IES” aksionerlik jamiyati belgilangan narxlarni muddatidan oldin qo‘llanilishiga hamda asossiz oshib ketmasligi uchun shaxsan javobgar etib belgilansin.

6.Mazkur qaror 2024-yil 10-iyundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiya a’zolari hamda viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  MIRZAYEV ZOYIR TOIROVICH

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining
2024-yil 3-iyundagi
VI-92-56-10-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

“Yangi Angren IES” aksionerlik jamiyati tomonidan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suv TARIFLARI

T/r	**Xizmat turi**	**Amaldagi narx** *(tarif) (so‘m)*	**Amaldagi narx** *(tarif) (so‘m) (QQS bilan)*	**Taklif etilayotgan narx** *(tarif) (so‘m)*	**Taklif etilayotgan narx** *(tarif) (so‘m) (QQS bilan)*
1	Aholi iste’molchilari uchun 1m³	200,0	224,0	750,0	840,0
2	Ulgurji iste’molchilar uchun 1m³	200,0	224,0	750,0	840,0